**"TASDIQLAYMAN"**
**Toshkent davlat texnika universiteti**
**Olmaliq filiali direktori**
**__________ A.U.Samadov**

# Texnik topshiriq

| | | |
|---|---|---|
| 1. | Tanlash predmeti | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialiga qarashli ob'yektlarda bajarilgan qurilish-montaj ishlarini nazorat o`lchovidan o`tkazish |
| 2. | Buyurtmachi | Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali |
| 3. | Moliyalashtirish manbai | Filial mablag'lari xisobidan |
| 4. | Manzil | O'zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Olmaliq shahri, Mirzo Ulug`bek ko`chasi 4 |
| 5. | Tanlash o'tkazish platformasi | Davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portal xarid.uzex.uz, etender.uzex.uz |
| 6. | Tanlash o'tkazish tili | O'zbek tilida |
| 7. | Valyuta | So'm |
| 8. | To'lov shartlari | Shartnomaga asosan. |
| 9. | Savollarga javob berish | Rasmiy xatga yozma ravishda javob, og'zaki shakldа, aloqa manbalari orqali: telefon, elektron pochta yoki messenjerlar orqali; |
| 10. | **Taklif taqdim etish shartlari** | **Elektron shaklda** |
| 11. | Ishtirokchilarga talablar | Texnik shart asosida |
| 12. | Boshlang'ich summasi | **40 000 000 so'm** |
| 13. | Ishlarni bajarish muddati | 10 kun |
| 14. | Xizmatni qabul qilish | Texnik shart asosida |
| 15. | Murojaat uchun | Mustapayev Qahramon +99893 932 05 75<br>Rahmatillayev Ibragim +99893 106 08 03 |
| 16. | **Takliflarni baholash** | 1. **Shu soxada uzluksiz ish staji - "10 ballgacha"** (5 yildan yuqori-10 ball, 2 yildan 3 yilgacha-5 ball, 2 yilgacha- 2 ball)<br>2. **Xodimlar soni - "10 ballgacha"** (5 tadan yuqori 10 ball, 4 tadan 5 tagacha-8 ball, 3 tagacha - 2 ball)<br>3. **Obyektning ishtirokchi tomonidan joyiga chiqib o`rganilganligi to`g`risidagi ma`lumotlar - "10 ballgacha"**<br>4. **Soliq organlari va bank kartotekalari mavjud emasligi to'g'risida tasdiqlangan ma'lumotnomalar. "10 ballgacha"** |

*Diqqat!!!*
*Ishtirokchilarning muassislarining afjlllanganligi, shuningdek filial bilan muqaddam tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganligi, qonunchilik xujjatlarida ishtiroki ta'qiqlangan boshqa hollarda taqdim etilgan hujjatlar baholanmaydi (0 ball) !!!*

**Bosh muhandis** **I.Rahmatillayev**

**Xo`jalik va texnik foydalanish bo`limi boshlig`i** **Q.Mustapayev**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialiga qarashli ob'yektlarda bajarilgan qurilish-montaj ishlarini nazorat o`lchovidan o`tkazish bo`yicha**

## TEXNIK SHART

| | | |
|---|---|---|
| 1. | Xizmatlar ro`yxati: | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialiga qarashli ob'yektlarda bajarilgan qurilish-montaj ishlarini nazorat o`lchovidan o`tkazish |
| 2. | Ob'yekt nomi: | Obekt nomalari ko`rsatiladi |
| 3. | Ob'yekt joylashgan manzil: | Toshkent viloyati |
| 4. | Buyurtmachi: | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali |
| 5. | Moliyalashtirish manbai: | Filial mablag'lari hisobidan |
| 6. | Loyihachi tashkilot: | "Pardoz" XK |
| 7. | Pudratchi tashkilot: | 1. TOMCHI BIZNES<br>2. KO'KTOSH QURILISH MCHJ<br>3. KO`XINUR MADAD XAMROX MCHJ |
| 8. | Qurilish-montaj ishlarining qiymati: | Ob'yektlarda amalda bajarilgan qurilish-montaj ishlarining qiymati: 2 455 950 570 so`m<br>Obyekt nomlari :<br>1 Videokuzatuv tizimlarini o'rnatish bo'yicha xizmatlar-41 000 000 so'm.<br>2 Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialining "Energetika va mashinasozlik" fakul'teti binosini joriy ta'mirlash- 204 600 000 so'm<br>3 Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali bosh binosini joriy ta'mirlash 221 000 000 so'm<br>4 Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali yotoqxonasini kapital ta'mirlash- 1 889 350 570 so'm |
| 9. | Ob'yektda bajarilgan qurilish-montaj ishlarini nazorat o`lchovidan o`tkazishga qo`yiladigan talablar: | 1. Ob'yektda amalga oshirilgan qurilish-montaj ishlarining amalda bajarilgan qiymati va bajarilgan ish uchun to`langan va taqdim etilgan narxlarni pul miqdorini tekshirish.<br>2. Ob'yektning loyiha-smeta xujjatlarida nazarda tutilgan xususiyatlarga va maqsadlariga muvofiqligini tekshirish.<br>3. Ayrim ish turlarining bajarilgan ishlar dalolatnomalarida takroran aks ettirilganligi.<br>4. Ilgari to`langan ishlarni qaytadan to`lovga taqdim etilganligi, o`rnatish ishlari tarkibida bo`lgan asbob-uskunalarning alohida aks ettirilganligi<br>5. Haqiqatdagi ish sharoitlari va ishlar tasnifiga (masalan, baland binolardagi, qishgi mavsumdagi ishlar va h.k.) mos kelmaydigan koeffitsiyentlarning qo`llanilganligi;<br>6. Asbob-uskunalar va kommunikatsiya tizimlarining sinovdan o`tkazilmagan holda bajarilgan ishlar tarkibiga kiritilganligi;<br>7. Qabul qilish aktlarida ko`rsatib o`tilgan hajmlarni amalda bajarilganligini va ob'yektni foydalanishga tayyorligini aniqlash.<br>8. Ob'yektda ishlatilgan qurilish materiallari va buyumlarning yashirin ish dalolatnomalari, ijro chizmalari, mualliflik nazorati jurnali va yuk xatlarida keltirilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish. |

| | | |
|---|---|---|
| | | 9. Nazorat o`lchovini texnik xavfsizlik talablariga qat'iy rioya qilingan holda amalga oshirish.<br>6. Nazorat o`lchovini to`g`ridan-to`g`ri ob'yektga tashrif buyurish va o`lchov vositalaridan foydalangan holda amalga oshirish.<br>10. Nazorat o`lchovini amalga oshirishda qurilish sohasidagi amaldagi normativ-xuquqiy va me'yoriy hujjatlardan foydalanish.<br>11. Nazorat o`lchovi natijasiga ko`ra qurilish ob'yektida haqiqatda bajarilgan ish hajmlarida loyihadan chetga chiqish holatlari mavjud bo`lsa, ushbu holatlarni ko`rsatish.<br>12. Hisobotlarda arifmetik xatolarning mavjudligi va boshqa hisob-kitoblarni tekshirish. |
| 10. | Ijrochiga va ijrochining hodimlariga qo`yiladigan talablar: | 1. Tenderga taqdim etilgan ob'yektga o`xshash qurilish-montaj ishlarida nazorat o`lchovlarini o`tkazish sohasida kamida 10 yillik tajribaga ega bo`lgan 10 nafar mutaxassislari bo`lishi lozim.<br>2. Nazorat o`lchovini, tarkibida shaharsozlik sohasida kamida 40 nafar oliy ma'lumotli va yuqori kasbiy mahoratga ega bo`lgan, qurilish nazoratini amalga oshirish bo`yicha yetarli ko`nikmalarga va sertifikatga ega bo`lgan mutaxassislari mavjud korxona tomonidan amalga oshirilishi lozim.<br>3. Moliyaviy barqarorligi.<br>4. So`ngi 2 yilgi Moliyaviy holati to`g`risida ma'lumot taqdim qilishi lozim (F-1, F-2)<br>5. O`xshash ob'yektlarning qurilish-montaj ishlari nazorat o`lchovlarini o`tkazish bo`yicha tajribaga ega bo`lishi, kamida 3 ta. (tasdiqlovchi xujjatlar ilova qilingan holda).<br>6. Oxirgai bir yil ichida qurilish montaj ishlarining umumiy qiymati 15 mlrd. dan oshgan kamida 20 ta ob'yektda nazorat o`lchov ishlarini amalga oshirgan bo`lishi kerak. (tasdiqlovchi xujjatlar ilova qilingan holda).<br>7. Arxitektura-shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish faoliyatini amalga oshirish uchun LITSENZIYA (murakkablik bo`yicha kamida 2-toifalik) |
| 11. | Hujjatlar tarkibi (buyurtmachi tomonidan taqdim etiladi): | Buyurtmachi va pudratchi korxona vakili yoki vakillariga nazorat o`lchovida qatnashish va dalolatnomani imzolash huquqini beruvchi buyruq, Loyiha-smeta hujjatlari (PSD), PSDga noidoraviy ekspertiza tashkilotining ekspert hulosasi, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish shartnomasi, bajarilgan ishlar dalolatnomalari, ijro chizmalari, mualliflik nazorati jurnali va yuk xatlarida, taqqoslash varaqasi va tashkilotning talablariga binoan nazorat o`lchovlarini amalga oshirish uchun boshqa hujjatlar. |
| 12. | Ob'yektda nazorat o`lchovini o`tkazish muddati: | Oldindan to`lov (bo`nak) amalga oshirilgan kundan boshlab 7 (yetti) kalendar kuni. |
| 13. | Ishlarni tugatganda va topshirayotganda buyurtmachiga taqdim etiladigan hujjatlar: | Ob'yektda nazorat o`lchovini o`tkazilgani bo`yicha tayyorlangan xulosa, bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-faktura. |
| 14. | Nazorat o`lchovi bo`yicha tayyorlangan xulosa qo`yiladigan iborat: | Nazorat o`lchovlari natijalari bo`yicha taqdim etiladigan xulosaga quyidagilar kiradi:<br>- Qurilish montaj ishlari nazorat o`lchovi bo`yicha Dalolatnomalarga "Izox xati".<br>- Qurilish montaj ishlari nazorat o`lchovi bo`yicha "Dalolatnomalar"<br>- Qurilish montaj ishlari nazorat o`lchovi bo`yicha "Dalolatnoma"ga xisob kitob varaqalari (vedomost) |

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali hududida amalga oshirilgan kapital va joriy ta`mirlash ishlari bo'yicha ma'lumot**

| № | Ob'yekt nomi | G'olib tashkilot nomi | Shartnoma summasi |
|---|---|---|---|
| 1 | Videokuzatuv tizimlarini o'rnatish bo'yicha xizmatlar | TOMCHI BIZNES | 141 000 000 |
| 2 | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialining "Energetika va mashinasozlik" fakul'teti binosini joriy ta'mirlash | KO'KTOSH QURILISH MCHJ | 204 600 000 |
| 3 | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali bosh binosini joriy ta'mirlash | KO'KTOSH QURILISH MCHJ | 221 000 000 |
| 4 | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali talabalar turar joyi binosini kapital ta'mirlash | KO`XINUR MADAD XAMROX MCHJ | 1 889 350 570 |
| **Jami** | | | **2 455 950 570** |

**Texnik foydalanish va xojalik bo'limi boshligi** — **Q.Mustapayev**

**Bosh muhandis** — **I.Rahmatullayev**

## Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 144312 на приобретение Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialiga qarashli ob’yektlarda bajarilgan qurilish-montaj ishlarini nazorat o'lchovdan o'tkazish

Способ проведения электронный

Дата 08.09.2022

Время рассмотрения 08.09.2022 08:18

Конкурсная комиссия Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети Олмалик филиали, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | SUTTIBAYEV BEXZAD ESHBAYEVICH | Ishlar boshqarmasi boshlig'i | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali |
| **Секретарь комиссии** | XOSHIMOV BURXONJON BAXROMJON O‘G‘LI | Xarid bo'yicha mutaxasis | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali |
| **Член комиссии** | Rahimov Najot Rahmatillayevich | Bosh audit | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali |
| **Член комиссии** | DADAJONOVA DILFUZAXON XUSNIDDINOVNA | Reja-moliya bo'limi boshlig'i | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali |
| **Член комиссии** | RAXMATULLAYEV IBRAGIM ISMATOVICH | Bosh muhandis | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali |
| **Член комиссии** | SHUKUROV ELBEK DILSHODOVICH | Bosh buxgalter | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali |
| **Член комиссии** | AXMEDOV MUXAMMADJAXONGIR KIDIRBAYEVICH | Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig’i | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali |
| **Член комиссии** | MUSTAPAYEV QAHRAMON SAPAROVICH | Xo’jalik va texnik foydalanish bo’limi boshlig’i | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 08.09.2022 года № лота 144312.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 70.00 / Весовой коэф. ценовой части: 30.00)

Мин. балл: 20

Предмет закупки:

| Наименование товара (работы, услуги) | Услуги проведения контрольного обмера выполненных строительно-ремонтных работ |
|---|---|
| Подробное описание | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialiga qarashli ob’yektlarda bajarilgan qurilish-montaj ishlarini nazorat o`lchovidan o`tkazish |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за | 40 000 000.00 |

| | |
|---|---|
| единицу | |
| Стартовая сумма | 40 000 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Soliq organlari va bank kartotekalari mavjud emasligi to’g’risida tasdiqlangan ma’lumotnomalar

Тип: Текстовое значение

Описание: Soliq organlari va bank kartotekalari mavjud emasligi to’g’risida tasdiqlangan ma’lumotnomalar

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ЧП LIDER MEGAPOLIS GROUP** | 10 | Soliq organlari va bank kartotekalari mavjud emasligi to’g’risida tasdiqlangan ma’lumotnomalar | 5 | Экспертная | | |
| **ООО "SQB CONSTRUCTION"** | 10 | задолжности нет | 5 | Экспертная | | |
| **ООО SENTR EKSPERTIZI I KONTROLYA STROITELSTVA** | 10 | информация | 5 | Экспертная | | |

Критерий №2 Yuridik shaxsda haqiqattan ham ishlovchi hodimlar QR ma'lumotnomalari

Тип: Текстовое значение

Описание: Yuridik shaxda haqiqattan ham ishlovchi hodimlarning my.gov.uz yoki mehnat.uz portallaridan olingan QR ma'lumotnomalari

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ЧП LIDER MEGAPOLIS GROUP** | 10 | Yuridik shaxda haqiqattan ham ishlovchi hodimlarning my.gov.uz yoki mehnat.uz portallaridan olingan QR ma'lumotnomalar | 10 | Экспертная | | |
| **ООО "SQB CONSTRUCTION"** | 10 | Ходимлар тўғрисида маълумот | 10 | Экспертная | | |
| **ООО SENTR EKSPERTIZI I KONTROLYA STROITELSTVA** | 10 | персонал | 10 | Экспертная | | |

Критерий №3 Shu soxada uzluksiz ish staji - “10 ballgacha”

Тип: Текстовое значение

Описание: Litsenziya guvohnoma va tuzligan shartnomalar ilova qilinadi.

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ЧП LIDER MEGAPOLIS GROUP** | 10 | Litsenziya guvohnoma va tuzligan shartnomalar ilova qilindi | 4 | Экспертная | | |
| **ООО "SQB CONSTRUCTION"** | 10 | Лицензиялар | 10 | Экспертная | | |
| **ООО SENTR EKSPERTIZI I KONTROLYA STROITELSTVA** | 10 | Лизензия, Аккредитация, договора | 6 | Экспертная | | |

Критерий №4 Obyektning ishtirokchi tomonidan joyiga chiqib o`rganilganligi to`g`risidagi ma`lumotlar

Тип: Текстовое значение

Описание: Obyektning ishtirokchi tomonidan joyiga chiqib o`rganilganligi to`g`risidagi ma`lumotlar va fotosuratlar

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ЧП LIDER MEGAPOLIS GROUP** | 10 | Тошкент давлат техника университети Олмалик филиалининг бош филиалини фасадини жорий таъмирлаш ишлари амалга оширилган. Шунингдек филиалнинг Охангарон шахридаги "Энергетика ва машинасозлик" факултети биноси ва ётокхонасида хам таъмирлаш, видео-кузатув тизимларини урнатиш ишлари амалга оширилганлиги маълум булди | 5 | Экспертная | | |
| **ООО "SQB CONSTRUCTION"** | 10 | Назорат ўлчов ишлари амалга оширилган объектлар | 5 | Экспертная | | |
| **ООО SENTR EKSPERTIZI I KONTROLYA STROITELSTVA** | 10 | кафолат хати | 5 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|

| | | | (UZS) | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **ЧП LIDER MEGAPOLIS GROUP** | 40 000 000.00 | 27 000 000.00 UZS | 27 000 000.00 | 00.00 | 27 000 000.00 | 04.09.2022 10:36:06 | 24.44 |
| **ООО "SQB CONSTRUCTION"** | 40 000 000.00 | 24 550 000.00 UZS | 24 550 000.00 | 00.00 | 24 550 000.00 | 06.09.2022 10:21:56 | 26.88 |
| **ООО SENTR EKSPERTIZI I KONTROLYA STROITELSTVA** | 40 000 000.00 | 22 000 000.00 UZS | 22 000 000.00 | 00.00 | 22 000 000.00 | 07.09.2022 07:09:06 | 30.00 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **ЧП LIDER MEGAPOLIS GROUP** | 42 | 24.44444 | 66.44444 |
| **ООО "SQB CONSTRUCTION"** | 52.5 | 26.88391 | 79.38391 |
| **ООО SENTR EKSPERTIZI I KONTROLYA STROITELSTVA** | 45.5 | 30 | 75.5 |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 144312 от 08.09.2022 года на приобретение Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialiga qarashli ob’yektlarda bajarilgan qurilish-montaj ishlarini nazorat o'lchovdan o'tkazish определила победителем:

ООО "SQB CONSTRUCTION"
306859967

и резервный исполнитель: ООО SENTR EKSPERTIZI I KONTROLYA STROITELSTVA (307850401)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | SUTTIBAYEV BEXZAD ESHBAYEVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | DADAJONOVA DILFUZAXON XUSNIDDINOVNA | Согласен | |
| **Член комиссии** | RAXMATULLAYEV IBRAGIM ISMATOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | SHUKUROV ELBEK DILSHODOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | MUSTAPAYEV QAHRAMON SAPAROVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | AXMEDOV MUXAMMADJAXONGIR KIDIRBAYEVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

SQB | CONSTRUCTION

# ҲАҚ ЭВАЗИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ШАРТНОМА

**204/22-сон**

Тошкент ш. 14.09.2022 йил

**“SQB Construction” МЧЖ** (кейинги ўринларда – Ижрочи) номидан 2021 йилнинг 16 апрелидаги 1-сонли ишончнома асосида иш юритувчи директор ўринбосари Л. Хакимов, бир тарафдан ва **"Islom Karimov Nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti Olmaliq Filiali"** (кейинги ўринларда – Буюртмачи) номидан Устав асосида иш юритувчи Директор Alisher Samadov Usmanovich, иккинчи тарафдан, биргаликда “Тарафлар” деб аталувчи мазкур шахслар қуйидагилар тўғрисида ушбу Шартномани туздилар:

## 1.Шартнома предмети

1.1. Ушбу Шартнома бўйича Ижрочи Буюртмачининг топшириғига асосан Шартноманинг 1.2-бандида қайт этилган Буюртмачининг объектида бажарилган қурилиш-монтаж ишларининг ҳақиқий ҳажмини аниқлаш учун назорат ўлчовини амалга ошириш билан боғлиқ хизматлар (кейинги ўринларда -Хизматлар) кўрсатиш, Буюртмачи эса кўрсатилган хизматларни ўз вақтида қабул қилиш ва уларнинг ҳақини тўлаш мажбуриятини олади.
1.2. Кўрсатиладиган хизмат номи: **Тошкент давлат техника университети Олмалиқ филиали қарашли объектларда бажарилган қурилиш-монтаж ишларининг назорат ўлчови**
1.3. Ижрочи ушбу Шартнома бўйича Хизматлар кўрсатишда қурилиш соҳасига оид амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга, шу жумладан Ўзбекистон Республикаси Қурилиш вазирлигининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари ҳамда Ижрочининг ички меъёрий ҳужжатларига асосланади.
1.4. Хизматлар Буюртмачи томонидан ушбу Шартноманинг 3.2-бандида кўрсатилган миқдорда олдиндан тўлов амалга оширилгандан ҳамда Шартноманинг 2-иловасида келтирилган Рўйхатга асосан ҳужжатлар тақдим этилгандан бошлаб 10 календар кун ичида кўрсатилади. Ижрочи Хизматларни муддатидан олдин кўрсатиш ҳуқуқига эга.

Буюртмачининг айби билан ҳужжатларнинг (2-илова) тақдим этилиши кечиккан тақдирда, Шартнома бўйича Хизматларнинг кўрсатилиш муддати кечиктирилган даврга мутаносиб равишда узайтирилиши мумкин.

## 2.Тарафларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари

2.1. Ижрочининг мажбуриятлари:
2.1.1. Хизматларни тўлиқ ва ушбу Шартноманинг 1.4-бандида кўрсатилган муддатда кўрсатиш.
2.1.2. Буюртмачининг талабига кўра, агар хизмат кўрсатиш жараёнида Ижрочи Шартнома шартларидан четга чиққан бўлса, аниқланган камчиликларни 5 календар куни ичида бартараф этиш.
2.1.3. Хизматларни ўз кучи билан, Буюртмачининг ёзма розилигисиз бошқа юридик шахсларни жалб этмаган ҳолда амалга ошириш.
2.1.4. Назорат ўлчови натижалари бўйича Буюртмачига ёзма равишда назорат ўлчовига оид материалларни ҳамда топшириш-қабул қилиш далолатномасини ва ҳисоб-фактурани топшириш.
2.1.5. Шартноманинг 6-бўлимида назарда тутилган ҳолатларга кўра Хизматларни кўрсатиш имконияти бўлмаган тақдирда, ўзининг ҳақиқатда амалга оширган харажатлари суммасини чегириб қолган ҳолда, олдиндан тўлов суммасини Буюртмачига қайтариш бериш.
2.2. Ижрочининг ҳуқуқлари:
2.2.1. Буюртмачи томонидан ушбу Шартноманинг 3.2-бандида кўрсатилган олдиндан тўлов амалга оширилгандан сўнг, мазкур Шартноманинг 2-иловасидаги Рўйхатга асосан

ҳужжатларнинг ўз вақтида тақдим этилгач хизмат кўрсатишни бошлаш.
2.2.2. Буюртмачидан белгиланган тартибда назорат ўлчовини ўтказиш учун мазкур Шартноманинг 2-иловасидаги Рўйхатга асосан зарур бўладиган тўлиқ ва аниқ ҳужжатларни талаб қилиб олиш.
2.2.3. Ўз ишини мустақил ташкил этиш, Хизмат кўрсатиш усулларини ҳамда мутахассислар таркибини танлаш.
2.2.4. Хизмат кўрсатиш жараёнида юзага келадиган саволлар бўйича Буюртмачининг масъул шахсларидан тушунтиришлар олиш.
2.2.5. Буюртмачининг розилиги билан Хизматларни кўрсатиш учун учинчи шахсларни жалб қилиш.
2.3. Буюртмачининг мажбуриятлари:
2.3.1. Ушбу Шартноманинг 3-бўлимида кўрсатиб ўтилган тартибда хизматлар учун ҳақ тўлаш.
2.3.2. Ижрочининг талабига асосан мазкур Шартноманинг 2-иловасидаги Рўйхат бўйича ҳужжатларни тўлиқ ҳажмда ҳамда назорат ўлчовларини ўтказиш муддатида тақдим этиш.
2.3.3. Ўз ходимлари ва пудратчилар вакилларининг иштирокини таъминлаш. Буюртмачи ва/ёки Пудратчининг вакилларининг ўлчов назоратини ўтказиш жараёнида қатнашишдан асоссиз равишда бош тортиши, ушбу Шартнома бўйича Хизматларни кўрсатмасликка сабаб бўла олмайди.
2.3.4. Ижрочини автотранспорт воситаси, офис хонаси ҳамда зарур ҳолларда Ижрочи вакилининг асосий иш жойи жойлашган манзил шаҳар ёки аҳоли яшаш пунктидан ташқарида жойлашган тақдирда хизматлар кўрсатиладиган давр учун вақтинчалик яшаш жойи билан таъминлаш.
2.3.5. Ижрочидан Топшириш-қабул қилиш далолатномасини олган кундан эътиборан 5 кун давомида кўрсатилган Хизматлар натижаларини қабул қилиш ёки ўзининг асослантирилган эътирозларини билдириш (мавжуд бўлса).
2.4. Буюртмачининг ҳуқуқлари:
2.4.1. Исталган пайтда Ижрочи томонидан кўрсатилаётган Хизматларнинг амалга оширилиши ва сифатини унинг фаолиятига аралашмаган ҳолда текшириш.
2.4.2. Ижрочидан назорат ўлчови материалларини, ушбу Шартноманинг бажарилиши ваижроси натижалари бўйича маълумотларни талаб қилиш ва олиш.
2.4.3. Объектда бажарилган қурилиш-монтаж ишларининг назорат ўлчови амалга оширилиш жараёнида қатнашиш.

## 3. Шартнома қиймати ва ҳисоб-китоблар тартиби

3.1. Мазкур Шартноманинг 1-иловасида келтирилган ҳисоб-китобларга кўра Шартноманинг умумий қиймати 15% ҚҚСни ҳисобга олган ҳолда **24 550 000 (йигирма тўрт миллион беш юз эллик минг сўм ) ташкил этади.**
3.2. Буюртмачи, Тарафлар ушбу Шартномани имзолаган кундан бошлаб Буюртмачи 10 (ўн) банк иш куни давомида Шартнома умумий қийматидан **30 %** миқдоридаги олдиндан тўлов (бўнак) ни Ижрочининг ҳисоб рақамига ўтказиб бериш мажбуриятини олади. Шартнома қийматининг қолган қисми кўрсатиладиган Хизматлар (бажарилган ишлар) юзасидан расмийлаштириладиган Бажарилган ишлар далолатномаси ва ҳисоб-фактура имзоланган кундан бошлаб 5 (беш) банк иш куни ичида тўлаб берилади.
3.3. Ушбу Шартнома бўйича кўрсатиладиган Хизматлар ҳажми ошган тақдирда Шартнома қиймати қабул қилинган тариф ставкасини сақлаган ҳолда ўзгартирилади. Мазкур ҳолатда ўзгартириш Тарафлар ўртасида қўшимча келишув тузиш йўли билан расмийлаштирилади. Шартнома бўйича Хизматлар ҳажми камайган тақдирда Шартнома қиймати қабул қилинган тариф ставкасини сақлаган ҳолда ўзгартирилади ҳамда бажарилган хизматлар Бажарилган ишлар далолатномасида акс эттирилади.

## 4. Хизматлар (ишлар)ни топшириш ва қабул қилиш тартиби

4.1. Хизматлар кўрсатилган (ишлар бажрилганидан)дан сўнг Ижрочи Буюртмачига тасдиқланмаган (имзо ва муҳр қўйилмаган) Назорат ўлчови далолатномаси электрон вариантини (ёки нусхаси) кўрсатилган Хизматлар (бажарилган ишлар)ни Топшириш-қабул қилиш далолатномасига илова қилинган ҳолда тақдим этади.

Буюртмачи кўрсатилган Хизматлар (бажарилган ишлар)ни, назорат ўлчови далолатномаси электрон варианти (ёки нусхаси)ни Топшириш-қабул қилиш далолатномасига асосан Ижрочидан олган санадан бошлаб 5 (беш) календарь кун давомида танишиб чиқиб қабул қилиш ёки ўзининг асослантирилган эътирозларини билдириш мажбуриятини олади.

4.2. Буюртмачи кўрсатилган Хизматлар (бажарилган ишлар)ни Топшириш-қабул қилиш далолатномаси имзоланган санадан бошлаб 5 (беш) календарь ичида қабул қилишдан асоссиз равишда бош тортса ҳамда бош тортиш сабабини ёзма равишда асослаб бермаса, кўрсатилган Хизматлар (бажарилган ишлар) Буюртмачи томонидан қабул қилинган деб ҳисобланади.
4.3. Ижрочи хизмат кўрсатиш жараёнида Хизмат кўрсатишни давом эттириш имконияти йўқлиги ёки Хизмат кўрсатишнинг мақсадга мувофиқ эмаслигини аниқлаган тақдирда бу ҳақда Буюртмачига олдиндан хабар бериши ва зарурий чораларни кўриши лозим.
4.4. Буюртмачи ёки унинг ваколатли вакили томонидан кўрсатилган Хизматлар (бажарилган ишлар) бўйича Бажарилган ишлар далолатномаси имзоланганидан сўнг Хизматлар кўрсатилган деб ҳисобланади.
4.5. Назорат ўлчови далолатномасининг асл нусхаси Буюртмачи ва Пудратчига, мазкур Шартнома бўйича Хизматлар ҳақи (Шартнома қиймати) Ижрочининг ҳисоб рақамига тўлиқ ҳажмда келиб тушганидан сўнг тақдим этилади.

**5. Махфийлик**

5.1. Тарафлар ушбу Шартноманинг мавжудлиги ва мазмуни, шунингдек ушбу Шартнома доирасида Тарафларнинг ҳар бирига тақдим этилган ҳар қандай маълумотларни сир сақлаш мажбуриятини олади.
5.2. Тарафлар иккинчи Тарафнинг олдиндан берилган ёзма розилигисиз учинчи шахсларга маълумотларни тўлиқ ёки қисман ошкор этмаслик мажбуриятини олади.
5.3. Ушбу шарт бошқа шахслар томонидан олиниши мумкин бўлган маълумотларга тегишли эмас, Ўзбекистон Республикаси қонунлари кўзда тутилган айрим ҳолатлар бундан мустасно.

**6. Форс-мажор ҳолатлар**

6.1. Мажбуриятларни бажармаганлик ёки лозим даражада бажармаганлик учун жавобгарликдан, Тарафлар, агар бу фавқулодда вазиятлар оқибатида юзага келганлигини исботласалар, озод қилинадилар. Фавқулодда вазиятлар бўлиб, пандемия, ер силкиниши, ёнгин, кучли шамол, фуқаролар тартибсизлиги, иш ташлаш, давлат органлари актлари, ҳар қандай ҳарбий ҳаракатлар ва бошқалар ҳисобланади.
6.2. Форс-мажор ҳолатлар юзага келганда, мажбуриятларни бажариш муддати ушбу Форс-мажор ҳолатлар ва уларнинг оқибатлари ҳаракатда бўлган даврга мос равишда узайтирилади.
6.3. Тарафлар форс-мажор ҳолатлар бошланиши ва тугаши тўғрисида бир-бирларини зудлик билан ёзма равишда хабардор қилишлари лозим.
6.4. Форс-мажор содир бўлганлигини рўкач қиладиган Тараф тегишли давлат идорасидан ушбу ҳолатни тасдиқловчи ҳужжатни иккинчи Тарафга тақдим этишга мажбурдир.

**7. Тарафларнинг жавобгарлиги**

7.1. Тарафлар ўз зиммаларига олган мажбуриятларни бажармаган ёки лозим даражада бажармаган ҳолларда Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси ҳамда "Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий-ҳуқуқий базаси тўғрисида"ги Қонунига мувофиқ жавобгар бўладилар.
7.2.Тарафлардан бири шартномавий мажбуриятларни бажармаган ёки лозим даражада бажармаган тақдирда, бу Тараф бошқа Тарафга етказилган зарарни тўлайди.
7.3. Хизматлар кўрсатилиши учун Буюртмачи томонидан тақдим этилган ҳужжатларнинг ҳаққонийлигига Ижрочи жавобгар эмас.

**8. Шартноманинг амал қилиш муддати ва унинг бекор қилиниши тартиби**

8.1. Ушбу Шартнома Тарафлар имзолаган кундан бошлаб кучга киради ва томонларнинг мажбуриятлари тўлиқ бажарилгунга қадар амал қилади.
8.2. Ижрочи Буюртмачи томонидан қуйидаги шартлар бажарилмаган тақдирда олдиндан тўлов (бўнак) ни қайтармаган ҳолда Шартномани бекор қилишни талаб қилиш ҳуқуқига эга:

- Хизмат кўрсатиш учун зарур бўлган хужжатларни тўлиқ ва керакли хажмда тақдим этмаганда;
- пудратчи ташкилотларнинг қатнашишларини таъминламаганда;
- Ижрочига боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра хизмат кўрсатишни бир ойдан ортиқ муддатга тўхтатилганда.

8.3. Буюртмачи қуйидаги ҳолларда Шартномани бекор қилишни талаб қилиш ҳуқуқига эга:
- Буюртмачига боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра Ижрочи томонидан хизмат кўрсатишни бошлаш 30 иш кунига кечиктирилганда;
- Шартномада кўрсатилган муддатга нисбатан хизмат кўрсатишни тугатиш муддатининг Ижрочининг айби билан 1 ойдан ортиқ муддатга узайтирилганда.

8.4. Ушбу Шартнома Тарафлардан ҳар бирининг ташаббуси билан, иккинчи Тарафни 5(беш) календарь кун олдин ёзма равишда хабардор қилган ҳолда бекор қилиниши мумкин.

## 9. Низоларни ҳал этиш тартиби

9.1. Ушбу Шартномани бажарилиш жараёнида юзага келиши мумкин бўлган низо ва келишмовчиликлар имкон қадар Тарафлар ўртасида музокаралар йўли билан ҳал этилади.

9.2. Тарафлар низоларни бартараф этишнинг судгача бўлган барча чораларни кўргандан сўнг ҳам низо ва келишмовчиликлар музокаралар йўли билан ҳал этилмаган тақдирда, низолар Тошкент туманлараро иқтисодий суди орқали ҳал этилади.

## 10. Якуний қоидалар

10.1. Ушбу Шартномага киритиладиган ҳар қандай ўзгартириш ва қўшимчалар улар ёзма равишда тузилган ва Тарафларнинг ваколатли шахслари томонидан имзоланган тақдирдагина ҳақиқий ҳисобланади. Ушбу Шартномага барча иловалар Шартноманинг ажралмас қисми бўлиб ҳисобланади.

10.2. Тарафлар ушбу Шартнома бўйича кўзда тутилмаган барча ҳолатлар бўйича Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилигига асосан ҳаракат қиладилар.

10.3. Мазкур Шартнома бир хил юридик кучга эга бўлган 2 (икки) нусхада ўзбек тилида тузилди ва Тарафларнинг ҳар бирида бир нусхадан сақланади.

## 11. Томонларнинг манзиллари ва банк реквизитлари:

**"Буюртмачи"**
**"Islom Karimov Nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti Olmaliq Filiali"**

| | |
|---|---|
| Манзил: | Тошкент вилояти, Олмалиқ шаҳри М.Улуғбек кўчаси 45 уй |
| Банк: | "Ipoteka-bank" ATIB Olmaliq filiali |
| Х/р: | 20203000300821960001 |
| МФО: | 00459 |
| СТИР: | 207260197 |
| ИФУТ | 85420 |
| | MOLIYA VAZIRLIGI G'AZNACHILIGI AMALIYOT BOSHQARMASI |
| Х/р | 400910860274047094100079001 |
| МФО | 00014 |

Директор ____________
Alisher Samadov Usmanovich

**"Ижрочи"**
**"SQB CONSTRUCTION" МЧЖ**

| | |
|---|---|
| Манзил: | Тошкент шаҳри, Шайхонтоҳур тумани, Абай кўчаси, 10А-уй |
| | Тошкент ш. |
| Банк: | "ЎЗСАНОАТКУРИЛИШБАНК" АТБ Лабзак БХМ |
| Х/р: | 2020 8000 1051 4315 0001 |
| МФО: | 00440 |
| СТИР: | 306 859 967 |
| ИФУТ: | 41201 |
| Тел.: | (71) 244-51-05, 244-53-65 |

Директор ўринбосари ____________
Л. Хакимов

14.09.2022 даги
204/22-сонли ҳақ эвазига хизмат кўрсатиш
бўйича шартномага
1-Илова

**Кўрсатиладиган хизматлар баҳосининг**
**ҲИСОБ-КИТОБИ**

| Иш ва хизматлар номи | Иш ва хизматлар ҳажми (сўм) | Тариф ставкаси % | Кўрсатиладиган хизматлар баҳоси (сўм) | ҚҚС суммаси (сўм) | Кўрсатиладиган хизматлар баҳоси (ҚҚС билан) (сўм) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4=2*3 | 5=4*0,15 | 6=4+5 |
| Тошкент давлат техника университети Олмалик филиали қарашли объектларда бажарилган қурилиш-монтаж ишларининг назорат ўлчови | | | 21 347 826,09 | 3 202 173,91 | 24 550 000 |
| Жами | | | 21 347 826,09 | 3 202 173,91 | 24 550 000 |

**"Буюртмачи"**
**"Islom Karimov Nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti Olmaliq Filiali"**

Директор
Alisher Samadov Usmanovich

**"Ижрочи"**
**"SQB CONSTRUCTION" МЧЖ**

Директор ўринбосари
Л. Хакимов

14.09.2022 даги
204/22-сонли ҳақ эвазига хизмат кўрсатиш
бўйича шартномага
2-Илова

**Назорат ўлчови ўтказиш учун буюртмачи томонидан тақдим этилиши лозим бўлган ҳужжатлар рўйхати**

1. Буюртмачи вакили ёки вакилларига назорат ўлчовида қатнашиш ва далолатномани имзолаш ҳуқуқини берувчи буйруқ.
2. Қурилиш-монтаж ишларини амалга оширилиш учун асос бўлган ҳужжатлар.
3. Ойлик кесимида пудратчилар томонидан бажарилган ишлар реестри.
4. Лойихалашга топшириқ ва нуқсон далолатномасини инобатга олган лойиха-смета ҳужжатлари (ЛСҲ).
5. ЛСҲганоидоравий экспертиза ташкилотининг эксперт хулосаси.
6. Қурилиш-монтаж ишларини амалга ошириш шартномаси.
7. Ишлар тури бўйича таснифланган расшифровка қилинган бажарилган қурилиш-монтаж ишлари қиймати ҳақидаги ҳисоб-фактура маълумотномалари.
8. Кўзга кўринмайдиган (ёпиқ) ва бузиб олиш (демонтаж) ишлари далолатномалари, шунингдек бузилиш жараёнида фойдаланишга яроқли бўлган қурилиш материаллари кирим ҳужжатлари.
9. Ижро чизмалари, техник ва ижро ҳужжатлари.
10. Танлов савдоларида голиб чиққан пудрат ташкилотларининг оферталари (конкурс ҳужжатларини инобатга олган ҳолда), голиб бўлганлиги тўғрисида тендер комиссиясининг баённомаси, зарурий ҳолларда қолган даъвогарларнинг оферталари.
11. Иш турлари бўйича бажарилган ишлар далолатномаси йиғмаси (электрон кўринишида).

**Назорат ўлчови ўтказиш учун пудратчи томонидан тақдим этилиши лозим бўлган ҳужжатлар рўйхати**

1. Пудратчи вакили ёки вакилларига назорат ўлчовида қатнашиш ва далолатномани имзолаш ҳуқуқини берувчи буйруқ.
2. Ойлик кесимида пудратчилар томонидан бажарилган ишлар реестри.
3. Қурилиш-монтаж ишларини амалга ошириш шартномаси.
4. Ишлар тури бўйича таснифланган бажарилган қурилиш-монтаж ишлари қиймати ҳақидаги ҳисоб-фактура маълумотномалари.
5. Ишлатилган қурилиш материаллари бўйича юк хатлари ва ҳисоб-фактуралар.
6. Тайёрланган ва қурилишда ишлатилган материаллар ва конструкциялар бўйича калькуляциялар.
7. Пудрат ташкилотининг бошқа харажатлари ҳисоб-китоблари.
8. Транспорт ва омбор харажатларига ҳисоб-китоблар.
9. Кўзга кўринмайдиган (ёпиқ) ва бузиб олиш (демонтаж) ишлари далолатномалари, шунингдек бузилиш жараёнида фойдаланишга яроқли бўлган қурилиш материаллари кирим ҳужжатлари.
10. Ижро чизмалари, техник ва ижро ҳужжатлари.
11. Танлов савдоларида голиб чиққан пудрат ташкилотларининг оферталари (конкурс ҳужжатларини инобатга олган ҳолда), голиб бўлганлиги тўғрисида тендер комиссиясининг баённомаси, зарурий ҳолларда қолган даъвогарларнинг оферталари.
12. Иш турлари бўйича бажарилган ишлар далолатномаси йиғмаси (электрон кўринишида).

| | |
|---|---|
| **“Буюртмачи”** | **“Ижрочи”** |
| **"Islom Karimov Nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti Olmaliq Filiali"** | **“SQB CONSTRUCTION” МЧЖ** |
| Директор | Директор ўринбосари |
| Alisher Samadov Usmanovich | Л. Хакимов |

**«TASDIQLAYMAN»**
**Islom Karimov nomidagi TDTU**
**Olmaliq filiali direktori**
**___________ A.Samadov**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialiga qarashli ob'yektlarda bajarilgan qurilish-montaj ishlarini nazorat o'lchovdan o'tkazish № 22110012144312 lot raqamli o`tkazilgan elektron Eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha O'RQ-684 ga asosan kelib tushgan e'tirozlarni ko'rib chiqish yuzasidan o'tkazilgan komissiya a'zolarining majlis

**BAYONNOMASI № 27**

Olmaliq sh. « 13 » sentabr 2022 y. 12:00

Ishtirok etgan komissiya a'zolari: B.Suttiboyev, I.Raxmatullayev, D.Dadajonova, Q.Mustapayev,E.Shukurov va M.Axmedov, Xarid komissiyasi kotibi B.Xoshimov. N.Raximov ma'lum sabablarga ko'ra qatnasha olmadi.

**KUN TARTIBI:**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialiga qarashli ob'yektlarda bajarilgan qurilish-montaj ishlarini nazorat o'lchovdan o'tkazish bo'yicha e'lon qilingan № 22110012144312 lot bo'yi cha eng yaxshi taklifni tanlash bayonnomasi 08.09.2022 yil kuni muhokama qilish uchun ikki kun muddatga etender.uzex.uz ochiq axborot portaliga joylangan bo'lib, kelib tushgan e'tirozlar yuzasidan tegishli majlis o'tkazish.

Komissiya kotibi B.Xoshimov so'zga chiqib Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialiga qarashli ob'yektlarda bajarilgan qurilish-montaj ishlarini nazorat o'lchovdan o'tkazish uchun o'tkazilgan № 22110012144312 27.08.2022 yil kuni etender.uzex.uz portalida e'lon berilgan va 08.09.2022 yil kunida bayonnoma elektron tarzda shakllanib ikki kun muddatga etender.uzex.uz ochiq axborot portaliga joylangan Eng yaxshi taklifni tanlash bayonnomasi yuzasidan 13.09.2022 yil kunigacha hech qanday e'tirozlar kelib tushmaganligini ma'lum qildi.

Komissiya a'zolari kun tartibiga yuqorida qo`yilgan masala muhokamasi bo'yicha bildirgan fikr muloxazalarini jamlab:

## QAROR QILADI:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialiga qarashli ob'yektlarda bajarilgan qurilish-montaj ishlarini nazorat o'lchovdan o'tkazish uchun g'olib deb topilgan **"SQB CONSTRUCTION" MChJ** (STIR 306859967) bilan **24 550 000.00** (yigirma to'rt million besh yuz ellik ming ) so'mlik shartnoma imzolansin.

**Komissiya a'zolari:**

| | | |
|---|---|---|
| **Ishlar boshqarmasi boshlig`i** | ____________ | **B.Suttiboyev** |
| **Bosh muhandis:** | ____________ | **I.Rahmatullayev** |
| **Bosh hisobchi** | ____________ | **E.Shukurov** |
| **Reja-moliya bo'limi boshlig'i** | ____________ | **D.Dadajonova** |
| **Xo'jalik va texnik foydalanish bo'limi boshlig'i** | ____________ | **Q.Mustapayev** |
| **Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi bosh boshlig'i** | ____________ | **M.Axmedov** |

2582919

# Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

# GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"SQB CONSTRUCTION" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"SQB CONSTRUCTION" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

14.11.2019 780143 ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 306859967

| | |
|---|---|
| Tashkiliy-huquqiy shakli: | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |
| Joylashgan joyi: | Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, ABAY KO'CHASI 10-A-UY, |
| Guvohnoma: | Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan berilgan |

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

my.gov.uz
Ягона Интерактив
Давлат Хизматлари Портали

Ўзбекистон
Республикаси
Қурилиш вазирлиги

№ 4183-0961-67c3-723e-8057-0150-9924
Ҳужжат яратилинган сана: 2021-10-14
Ариза рақами: 37394045

Ҳужжат берилган: ОБЩЕСТВО С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ "SQB CONSTRUCTION"
Қабул қилувчининг идентификация рақами: 306859967

**Архитектура-шаҳарсозлик ҳужжатларини ишлаб чиқиш фаолиятини амалга ошириш учун ЛИЦЕНЗИЯ**

"SQB CONSTRUCTION" MCHJ га объектларнинг мураккаблик тоифалари классификатори бўйича II тоифадаги объектлар учун қуйидаги:
Архитектура-шаҳарсозлик ҳужжатларининг айрим бўлимларини ишлаб чиқиш бўйича фаолият турлари. Б гуруҳи Объектларнинг металл конструкциялари бўлимини лойиҳалаштириш, Объектларнинг асослари ва пойдеворлари бўлимини лойиҳалаштириш, Бинолар ва иншоотларнинг муҳандислик тармоқлари ва тизимларини лойиҳалаштириш:, Капитал қурилишда товарлар, ишлар ва хизматлар харид қилиш учун танлов (тендер) ҳужжатларини тайёрлаш, вертикал режалаштириш, электр билан ёритиш;, Объектларнинг темир-бетон конструкциялари бўлимини лойиҳалаштириш, Махсус объектлар ва иншоотларни лойиҳалаштириш, Қурилиш объектларини мукаммал ва жорий таъмирлаш учун лойиҳа-смета ҳужжатлари, сув қувури ва канализация;, иситиш, вентиляция, кондиционерлаштириш; фаолият тур(-лар)и билан шуғулланишга лицензия берилди.

Лицензия берилган сана: 14-10-2021 йил

Лицензия рақами: АЛ-001928

Солиқ тўловчининг идентификация рақами (СТИР): 306859967

Юридик шахснинг почта манзили: ABAY KO'CHASI 10-A-UY

Лицензия амал қилиш муддати чекланмаган.

ALIMUXAMEDOV ALIJON RASHOD O‘G‘LI

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали тўғрисидаги низомга мувофиқ шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси ҳисобланади. Электрон ҳужжатнинг нусхасида кўрсатилган маълумотлар тўғрилигини текшириш учун repo.gov.uz веб-сайтига ўтинг ва электрон ҳужжатнинг ноёб рақамини киритинг ёки мобил телефон ёрдамида QR-кодни сканер қилинг. Диққат! Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ электрон ҳужжатлардаги маълумотлар қонуний ҳисобланади. Давлат органларига Ягона порталда шакллантирилган электрон ҳужжатларнинг нусхаларини қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланган.

9435

my.gov.uz

Ўзбекистон Республикаси
Қурилиш вазирлиги

№ 5148-7163-0f45-2619-df45-1624-0224
Ҳужжат яратилинган сана: 2022-08-31
Ариза рақами: 57964441

Ҳужжат берилган: "SQB CONSTRUCTION" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
ЖШ ШИР: 306859967

**Қурилиш лойиҳаларини экспертизадан ўтказувчи юридик шахсларни аккредитациядан ўтказилганлиги тўғрисида**
**ГУВОҲНОМА**

Масъулияти чекланган ёки қўшимча масъулиятли жамият "SQB CONSTRUCTION" mas’uliyati cheklangan jamiyati га қурилиш лойиҳаларининг экспертизасини ўтказиш фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқига гувоҳнома берилди.

Гувоҳнома берилган сана: 31-08-2022 йил

Гувоҳнома рақами: ҚЛЭ-000298

Солиқ тўловчининг идентификация рақами (СТИР): 306859967

Юридик шахснинг почта манзили: Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, ABAY KO`CHASI, 10A-UY

Гувоҳнома беш йил муддатга берилди.

XIDAYEV OYBEK XASANOVICH

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу ҳужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Ҳужжат ҳақиқийлигини repo.gov.uz веб-сайтида ҳужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.

2591